

# **BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MUTAXASSISLIGINING TEST SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur test spetsifikatsiyasining maqsadi Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida dars berayotgan mutaxassisga qo‘yilgan minimum bilim darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladigan test variantlarini strukturasi va qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat. Mazkur hujjatga aprobativiyalar natijasida olingan qo‘shimchalar, o‘zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

## **I. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi fanlaridan bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning test sinovi turlari**

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishini bitirgan mutaxassislarining bilimlarini baholashning test sinovi tartibi quyidagi ikki qismdan iborat:

### **1. Boshlang‘ich ta‘lim mutaxassislarining tayyorgarligini baholash;**

Bu qismga doir topshiriqlar umumiy Boshlang‘ich ta‘lim mutaxassisi egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni baholashga mo‘ljallangan topshiriqlardan iborat bo‘ladi.

### **2. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi mutaxassisi bo‘yicha olgan amaliy ko‘nikmalarini baholash;**

*Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishining, ya‘ni, pedagogika, psixologiya, maxsus metodika va qo‘shimcha mutaxassislik bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar to‘plamini avtomatizm darajasida egallagani va qo‘llay bilishi tekshiriladi.*

## **II. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta‘lim yo‘nalishidan bilimlarini baholashda test sinovida qamrab olingan boshlang‘ich ta‘limning mazmun sohalari**

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishini bitirgan bakalavrlarning bilimlarini baholashda ushbu yo‘nalish bo‘yicha malaka talablariga mos va turdosh bo‘lgan adabiyotlar asosida boshlang‘ich ta‘limning quyidagi mazmun sohaslarini qamrab oladi:

**I.** Metodika;

**II.** Ona tili;

**III.** O‘qish;

**IV.** Matematika;

**V.** Texnologiya;

**VI.** Tabiatshunoslik ;

**Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishidan test sinovi asosida talabgorning bilimini baholashning tayyorgarlik talablari**

Test sinovi asosida boshlang'ich ta'lim yo'nalishidan talabgor bilimlari quyidagi boshlang'ich ta'lim tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar asosida baholanadi:

1. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.
2. Boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi .
3. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi mazmuni va vazifalari;
4. Ona tili.
5. O'qish.
6. Matematika. Arifmetik amallar va tenglamalar .
7. Mantiqiy va hayotiy masalalar yechish .
8. Texnologiya.
9. Tabiatshunoslik.

*Eslatma 1: Bu talablar umumiy holda berilib, ular boshlang'ich ta'lim yo'nalishining amaldagi malaka talablaridan kelib chiqib, yanada aniqlashtirilib, bir nechta bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga doir aniqroq talablarga bo'linadi va kodifikatorida keltiriladi.*

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishidan bilimlarni baholashda talabgorlarning test sinovi topshiriqlari yordamida quyidagi aqliy faoliyat turlari baholanadi:

1. Bilish.
2. Qo'llash.
3. Tahlil qilish.

### **III. Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligida foydalaniladigan test turlari**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarining bilimlarini baholashning test sinovi topshiriqlari quyidagi test turlaridan iborat bo'lishi mumkin:

Y1 – bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i

Y2 – moslashtirishni talab qiladigan test topshirig'i

Y3 – dixotom (“to'g'ri – noto'g'ri” shaklidagi) test topshirig'i

*Eslatma 2: Test turlari texnik talablardan kelib chiqqan holda qo'shimcha o'zgartirish kiritilishi mumkin.*

### **IV. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi mutaxassislari bilimlarini baholashning attestatsiyasi test sinovi spetsifikatsiyasi (formati)**

<b>№</b>	<b>Baholanadigan bitiruvchilar</b>	<b>Mazmun sohasi</b>	<b>Topshiriqlar soni</b>	<b>Testlar turi</b>	<b>Baholanadigan aqliy faoliyat turi</b>	<b>Ajratilgan vaqt (daq)</b>	<b>Murakkablik</b>	<b>Ball</b>
----------	------------------------------------	----------------------	--------------------------	---------------------	--	------------------------------	--------------------	-------------

								<b>dara jasi</b>	
1	Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi	I	3	1	Y1	Bilish	1.5	II	2
				1	Y2	Qo'llash	1.5	II	2
				1	Y3	Tahlil qilish	1.5	III	2
2	Boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi	II	3	2	Y1	Bilish	1.5	I	2
				1	Y3	Tahlil qilish	1.5	II	2
3	<i>Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi mazmuni va vazifalari</i>	III	3	2	Y1	Bilish	1.5	I	2
				1	Y3	Tahlil qilish	1.5	III	2
4	Ona tili	IV	8	4	Y1	Bilish	1.5	I	2
				2	Y2	Qo'llash	1.5	II	2
				2	Y3	Tahlil qilish	1.5	III	2
5	Matematika: Arifmetik amallar va tenglamalar	V	3	1	Y1	Bilish	1.5	II	2
				1	Y2	Qo'llash	1.5	II	2
				1	Y3	Tahlil qilish	1.5	III	2
6	Mantiqiy va hayotiy	VI	5	2	Y1	Bilish	1.5	II	2
				2	Y2	Qo'llash	1.5	II	2

	masalalar yechish			1	Y3	Tahlil qilish	1.5	III	2
7	O‘qish	VII	6	4	Y1	Bilish	1.5	I	2
				1	Y2	Qo‘llash	1.5	II	2
				1	Y3	Tahlil qilish	1.5	III	2
8	Texnologiya	VIII	4	2	Y1	Bilish	1.5	I	2
				1	Y2	Qo‘llash	1.5	II	2
				1	Y3	Tahlil qilish	1.5	III	2
9	Tabiatshunoslik	IX	5	2	Y1	Bilish	1.5	I	2
				2	Y2	Qo‘llash	1.5	II	2
				1	Y3	Tahlil qilish	1.5	III	2
	<b>Jami:</b>		<b>40</b>				<b>60</b>		<b>80</b>
					<b>Y1 – Bilish - 20</b>	<b>- 20 ,</b>	<b>1.5x20 =30</b>	<b>I daraja - 26</b>	
					<b>Y2 – Qo‘llash -10</b>	<b>-10</b>	<b>1.5x10 =15</b>	<b>II daraja – 5</b>	
					<b>Y3 – Tahlil qilish- 10</b>	<b>- 10</b>	<b>1.5x10 =15</b>	<b>III daraja –9</b>	

*Eslatma 3: test sinovining yuqorida keltirilgan (testlar soni, turi, ajratilgan vaqti, bali, murakkablik darajasi, sertifikat berish bali kabi) ko‘rsatkichlariga tajriba-sinov natijalari va ilmiy asosli tahlilidan kelib chiqib, tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.*

**V. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bilimlarni baholashning qismlari bo‘yicha qiyosiy ko‘rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Test sinovi qismlari</b>	<b>Qamrab olingan mazmun sohalari</b>	<b>Topshiriqlar soni</b>	<b>Ajratilgan vaqt</b>	<b>Ajratilgan ball</b>	<b>Murakkablik darajasi</b>	<b>Aqliy faoliyat turi</b>
<b>II</b>	Pedagogning boshlang'ich ta'lim tayyorgarligini baholash	<b>I – IX</b>	<b>40</b>	<b>60</b>	<b>80</b>	<b>I daraja- 20 II daraja- 10 III daraja- 10</b>	<b>Bilish — 20 Qo'llash – 10 Tahlil qilish-10</b>

#### **VI. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha sohalarining mazmun elementlari kodifikatori**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlarni baholashda test sinovi topshiriqlarini tuzish uchun boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha sohalarning mazmun elementlari kodifikatori malaka talablari va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlari mazmuni asosida tuzilgan.

Boshlang'ich ta'lim sohalari mazmun elementlari kodifikatori Oliy ta'lim tizimi doirasida ko'zda tutilgan barcha mazmun elementlari va malaka talablarini qamrab oladi.

Jadvalning birinchi ustunida boshlang'ich ta'limning mazmun sohalari kodi, ikkinchi ustunida baholanadigan mazmun elementi kodi va uchinchi ustunda attestatsiya test sinovida baholanadigan mazmun elementi keltirilgan.

<b>Soha kodi</b>	<b>Baholanadigan mazmun elementi kodi</b>	<b>Test sinovida baholanadigan mazmun elementi</b>
<b>I</b>		<b>ONA TILI O'QITISH METODIKASI PEDAGOGIK FAN</b>
1.1	1.1.1	Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari. Ona tili o'qitish metodikasining tamoyillari
	1.1.2	Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari

	1.1.3	Ona tili boshlang'ich sinflarda o'quv predmeti
1.2		<b>SAVOD O'RGATISH METODIKASI</b>
	1.2.1	Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari
	1.2.2	Savod o'rgatish metodlarining qiyosiy-tanqidiy tahlili
	1.2.3	Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi
	1.2.4	Savod o'rgatish jarayoni
	1.2.5	Alifbo davri
	1.2.6	O'qish va yozuv darslariga qo'yiladigan talablar
	1.2.7	Oz komplektli maktablarda savod o'rgatish darslarining xususiyatlari
<b>II</b>		<b>BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH METODIKASI</b>
2.1	2.1.1	O'qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati, metod va usullari.O'qish turlari
	2.1.2	Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish
	2.1.3	Badiiy asar ustida ishlash jarayoni
2.2	2.2.1	O'qish darslarida badiiy asarlarni janriy xususiyatlariga ko'ra o'rganish
	2.2.2	O'qishdan umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish. O'qish darslarida nutq o'stirish
2.3	2.3.1	Sinfdan tashqari o'qish metodikasining maqsad va vazifalari; Sinfdan tashqari o'qish bosqichlari va kitob tanlash tamoyillari
2.4	2.4.1	Boshlang'ich sinflarda grammatika, fonetika, imlo va so'z yasalishini o'rganish metodikasi
	2.4.2	Boshlang'ich sinflarda grammatika, fonetika, imlo va so'z yasalishini o'rganish metodikasi

<b>III</b>		<b>BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI</b>
3.1	3.1.1	Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi mazmuni va vazifalari
	3.1.2	Butun nomanfiy sonlar . Nomerlash . Arifmetik amallar metodikasi
	3.1.3	Boshlang'ich sinflarda algebraik va geometrik materiallar
<b>IV</b>		<b>ONA TILI</b>
4.1	4.1.1	Tilshunoslik bo'limlari
	4.1.2	Fonetika
	4.1.3	Orfografiya
	4.1.4	Leksikologiya
	4.1.5	Morfemika. So'z tarkibi. So'z yasalishi
	4.1.6	Morfologiya (Mustaqil so'z turkumlari. Ot, sifat, son, fe'l, olmosh)
	4.1.7	Sintaksis (Sodda gap sintaksisi. Gap bo'laklari)
<b>V</b>		<b>MATEMATIKA</b>
5.1	5.1.1	Arifmetik amallar va tenglamalar
	5.1.2	Arifmetik amallar
	5.1.3	Kasrlar. Kasrlar ustida amallar . Kasrlarni taqqoslash
	5.1.4	Natural, butun va ratsional sonlarni bir-biridan farqlash
	5.1.5	Foizlar, proporsiyalar va kasrlarga oid sodda masalalar
<b>VI</b>		<b>MANTIQUIY VA HAYOTIY MASALALAR</b>
6.1	6.1.1	Mantiqiy va hayotiy masalalar
	6.1.2	Sodda geometrik figuralar
	6.1.3	Amaliy masalalarni diagrammalar yordamida yechish

	6.1.4	Juft va toqlikka oid qiziqarli nostandart va matnli masalalar
	6.1.5	Bo'yashlar, qirqishlar va simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar
<b>VII</b>		<b>O'QISH</b>
7.1	7.1.1	Xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy asar namunalari
	7.1.2	Badiiy asar qahramonlari sifatleri
	7.1.3	Badiiy asarning g'oyaviy- badiiy xususiyati
<b>VIII</b>		<b>TEXNOLOGIYA</b>
8.1	8.1.1	Texnologiya va texnologik vositalar
	8.1.2	Texnik konstruksiyalash va modellashtirish
	8.1.3	Qog'oz va karton bilan ishlash
	8.1.4	Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash
	8.1.5	Robototexnika asoslari
	8.1.6	Zamonaviy kasblar
<b>IX</b>		<b>TABIATSHUNOSLIK</b>
9.1	9.1.1	Tabiatda suv va havo
	9.1.2	Tuproq, o'simliklar va hayvonot dunyosi
	9.1.3	Quyosh sistemasi va Yer
	9.1.4	Yer yuzi tabiatining xilma – xilligi
	9.1.5	Yerosti boyliklari (foydali qazilmalar)
	9.1.6	O'zbekiston Respublikasi xaritasi
	9.1.7	Odamning tuzilishi

**VII. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlarni baholashda test sinovida kadrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar (ko'nikmalar)ning kodifikatori**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlarni baholashda test sinovida talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar(ko'nikmalar)ning kodifikatori Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari



va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlari mazmuni asosida tuzilgan.

Boshlang'ich ta'limning barcha yo'nalishlari bo'yicha talablarning kodifikatori ta'lim muassasalari bitiruvchilarining shu soha bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan asosiy talablarni o'z ichiga oladi.

Jadvalning birinchi ustunida Boshlang'ich ta'limning mazmun sohasi kodi, ikkinchi ustunida baholanadigan ko'nikmalar kodi va uchinchi ustunida test sinovida baholanadigan ko'nikmalarga qo'yilgan talablar keltirilgan.

<b>Soha kodi</b>	<b>Baholanadigan ko'nikma kodi</b>	<b>Test sinovida baholanadigan ko'nikmalar</b>
1	<b>Metodika</b>	
	1.1	Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi predmeti va xususiyatlarini amaliyotda qo'llay olish
	1.2	Boshlang'ich sinflarda o'qish o'qitish metodikasi predmeti va xususiyatlarini amaliyotda qo'llay olish
	1.3	Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishning o'qitish metodikasi predmeti va xususiyatlarini amaliyotda qo'llay olish
	1.4	Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi predmeti va xususiyatlarini amaliyotda qo'llay olish
2	<b>Ona tili</b>	
	2.1	Tilshunoslik bo'limlari va ular orasidagi hodisalarni farqlash
	2.2	Tovushlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra turlarini ajrata olish
	2.3	Gapda so'zlarning ma'no turlariga ko'ra bog'lanishini aniqlash
	2.4	Grammatik mazmundagi topshiriqlarni yecha olish
	2.5	So'z, ibora va atama(termin)larning ma'nosini tushunish va farqlay olish
3	<b>O'qish</b>	

	3.1.1	Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy asarga munosabat bildira olish
	3.1.2	Asar qahramonlariga ta’rif bera olish
	3.1.3	Asarning g‘oyaviy- badiiy xususiyatini tahlil qila olish
4	<b>Matematika</b>	
	4.1	Ifoda tarkibidagi amallar tartibini aniqlash va yecha olish
	4.2	Sodda va murakkab tenglamalarni yechish
	4.3	Hayotiy va mantiqiy masallar yechimini topa olish
	4.4	Kasrlar. Kasrlarni qo‘shish va ayirish amallarini bajarish . Kasrlarni taqqoslay olish.
	4.5	Sodda geometrik figuralarni farqlash
	4.6	Bo‘yashlar, qirqishlar va simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish
5	<b>Texnologiya</b>	
	5.1	Texnologiyaning rivojlanishi va ishlov berish vositalari farqlash
	5.2	Buyumlarning tashqi ko‘rinishini o‘rganish va farqlash
	5.3	Qog‘oz va kartondan buyumlar yasash texnologiyasi usullarini bilish
	5.4	Tabiiy va polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasini farqlay olish
	5.5	Robototexnika modellarini turlariga qarab ularni ajrata olish
	5.6	Zamonaviy kasblarni bir-biridan farqlash
6	<b>Tabiatshunoslik</b>	
	6.1	Tabiatda suv va havoning ahamiyati, suvning tarqalishi(yerosti va yerusti suvlari), xususiyatlari, suv havzalarining turlari, havo va uning tarkibini bilish; ob-

		havo belgilari asosida kundalik ob-havo o'zgarishlarini, yog'in turlarini farqlash
6.2		Tuproq, uning tuzilishi va ahamiyati, unumdorligini bilish, tuproq turlarini farqlash; o'simliklar va hayvonlarning turlari, ularning xususiyatlarini farqlash
6.3		Quyosh sistemasining tuzilishi, Quyosh, sayyoralar (jumladan, Yer) va boshqa osmon jismlarining tuzilishi, o'lchamlari va xususiyatlarini bilish; Yerning shakli va uning oqibatlari (kun va tun almashinishi)ni farqlash
6.4		Yer yuzi tabiatining xilma – xilligi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, Yer yuzasining asosiy relyef shakllari, ularning xususiyatlarini, tabiat zonalari, mamlakatimiz tog'lari, cho'llari va adirlari tabiatini bilish; ufq tomonlarini farqlash va aniqlash
6.5		Yerosti boyliklari (foydali qazilmalar)ning vujudga kelish sabablarini bilish; yerosti boyliklarining turlari va xususiyatlarini farqlash
6.6		Xaritalar, jumladan O'zbekiston Respublikasi xaritasi haqida bilish, xarita elementlari va O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) va ularning xususiyatlarini farqlash
6.7		Odamning tuzilishi, tana a'zolarini bilish va farqlash

### **VIII. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishidan bilimlarni baholashning test sinovi topshiriqlarining baholash mezonlari**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha testlarning og'irlik darajasidan qat'iy nazar har bir test uchun 2 ball beriladi. To'g'ri javob uchun – 2 ball, noto'g'ri javob uchun – 0 ball.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuziladigan testlar uchun namunalar:

Y1 – bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i

Y2 – moslashtirishni talab qiladigan test topshirig‘i

Y3 – dixotom (“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” shaklidagi) test topshirig‘i

**Y1**

**Manba:** 3- sinf o‘qish darsligi 190- bet

**Qiyinlik darajasi – 2**

Manba: Soha kodi -7.1.2 baholanadigan mazmun element kodi 3.1.2

3- sinf o‘qish darsligida berilgan “Oq tumshuqning jasorati” hikoyasida Oq tumshuq obrazi qaysi hayvon orqali tasvirlangan ?

it

ot

ayiq

kabutar


**Y2**

**Manba:** 4- sinf tabiatshunoslik darsligi 103- bet

**Qiyinlik darajasi – 2**

Manba: Soha kodi -9.1.1 baholanadigan mazmun element kodi 6.1

To‘rtinchi raqam ostida qaysi ichki a‘zo belgilangan?



Oshqozon

Yurak

Jigar

O‘pka

**Y2**

**Manba:** 3- sinf tabiatshunoslik darsligi 25-40- bet

**Qiyinlik darajasi – 3**

Manba: Soha kodi -9.1.4 baholanadigan mazmun element kodi 6.4

Quyida keltirilgan yer osti boyliklarini turiga qarab ajrating

1-Yoqilg'i sifatida foydalaniladigan qazilmalar	a) Ko'mir
2- Qora va rangli metallar	b) Marmar
3-Qurilishda foydalaniladigan qazilma boyliklari	c) Mis
	d) Tabiiy gaz
	e) Granit
	f) Oltin
1-a,d; 2-c,f; 3-b,e	
1-a,d; 2-g,f; 3-b,e	
1-v,d; 2-c,f; 3-b,e	
1-e,d; 2-c,f; 3-b,a	

**Y3**

**Manba:**

**Qiyinlik darajasi – 3**

Kitobning bahosi 13 000 so'm . 35% chegirma bilan 145 000 so'mga 17 ta kitob xarid qilish mumkin. Ushbu masala to'g'rimi?

To'g'ri

Noto'g'ri